

Uzoq Va Qisqa Muddatli Bank Kreditlarining Auditi

Yahyoyev To'liqin Ismatullayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Auditorlik firmalari huquqiy shaxs bo'lib o'z faoliyatlarini xo'jalik hisobi, o'zini - o'z mablag' bilan ta'minlash qoidalari asosida amalga oshiradi. Auditorlik firmalari bajargan xizmatlari uchun haq to'lovlarni buyurtmachilar bilan kelishilgan holda o'rnatadilar. Auditorlik firmalari o'z ixtiyorlaridagi mablag' va mulklardan foydalanishni, buxgalteriya hisobini yuritishni, xodimlarni ishga qabul qilishni va boshqa masalalarni mustaqil hal etishadi. Ushbu maqolada shu ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kredit, foiz stavkasi, garov, bank, mijoz, audit, buxgalteriya hisobi, tijorat banklari, Markaziy Bank, xo'jaliklararo kredit.

Kirish. Respublikamizda auditni rivojlantirish uchun huquqiy - me'yoriy asoslar (auditorlik faoliyati to'g'risidagi Qonun, Vazirlar Mahkamasi va Soliq Qo'mitasi tomonidan qabul qilingan qator farmon va farmoyishlar) yetarlicha ishlab chiqilgan. Auditorlik firmalariga litsenziya berish va auditorlarni qaydlash tartibi shu me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan. Audit to'g'risida huquqiy asoslarni yaratilishi auditorlarni attestadiyadan o'tkazish va auditorlik firmalariga litsenziya berishda namoyon bo'lyapti. Litsenziyalarni olish uchun auditorlardan buxgalteriya hisobini, soliq qonunchiligini va tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni to'la bilish talab etiladi.

Auditorlik firmalari huquqiy shaxs bo'lib o'z faoliyatlarini xo'jalik hisobi, o'zini - o'z mablag' bilan ta'minlash qoidalari asosida amalga oshiradi. Auditorlik firmalari bajargan xizmatlari uchun haq to'lovlarni buyurtmachilar bilan kelishilgan holda o'rnatadilar. Auditorlik firmalari o'z ixtiyorlaridagi mablag' va mulklardan foydalanishni, buxgalteriya hisobini yuritishni, xodimlarni ishga qabul qilishni va boshqa masalalarni mustaqil hal etishadi. Auditorlik firmasi amaldagi qonunchilikka asosan turli birlashmalarga va Assotsiatsiyalarga a'zo bo'lishi mumkin. Auditorlik firmalarida ishlar uning direktori tomonidan boshqariladi. Direktor xodimlarni ishga qabul qiladi, ishdan bo'shatadi, ish rejalarini tasdiqlaydi, firma maqsadiga erishish yo'lida har qanday huquqiy harakatlarni bajaradi va tashkilot manfaatlarini boshqaruv organlari oldida himoya qiladi.

Tahlil va natijalar. Auditorlik tashkiloti "JAVLON AUDIT SERVIS" "Oqtoshdon" OAJda bank kreditlari auditini audit maqsadidan, shuningdek auditorlik shartnomasining shartlaridan kelib chiqqan holda auditorlik tekshiruvini rejasini tuzishdan boshlaydi. Auditorlik tekshiruvini eng avvalo auditni rejalashtirishdan boshlanadi, shuning uchun uning to'liq va ko'zlangan maqsadga erishuvchanligini ta'minlash maqsadida uni tuzishdan avval auditor (auditorlik guruhi) tomonidan bir qancha tadbirlar, amallar amalga oshirilishi kerak. Auditor korxonaning bank kreditlarining ichki nazorat tizimi va buxgalteriya hisobining holatini baholash lozim, buning uchun savolnoma, testlar tuzish va uni to'ldirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xo'sh bu nima uchun kerak degan savol tug'iladi, bu shuning uchun kerakki, auditor audit jarayonida aynan qaysi obyektlarga ko'proq e'tibor berishi lozimligi, qaysi obyektlarda risk darajasi kattaroq ekanligini va shu kabilarni bilishi uchun kerak. Bu savolnomayu testlarda obyektning xususiyatidan kelib chiqqan holda qo'yilgan savollarga auditor tegishli manbalardan (xodimlardan, hujjatlar dan, rahbarlardan va hokazolardan) javob olib qayd qilib boradi va shu javoblardan kelib chiqib auditorlik rejasini ishlab chiqadi. Auditni rejalashtirish jarayoni O'zRning "Auditni rejalashtirish" nomli 3-son AFMS ga muvofiq amalga oshiradi. Auditor o'z ish uslubidan kelib chiqib auditorlik tekshiruvining rejasiga turlicha yondashishi ham mumkin (mazkur standartdan chetlashmagan holda). Ushbu reja hujjat shaklida


bo'lib, unda tomonlarning nomlari, auditni o'tkazish davri, auditorlik guruhi rahbari, a'zolari, auditorlik riski va muhimlik darajasi, rejalashtirilayotgan tadbirlarning mazmuni, ularning har biriga (yoki guruhiga) ajratilgan vaqt va tadbir yuklatilgan auditor (yordamchisi) ning nomi (F.I.Sh.) va izohlar keltirilgan bo'ladi. U auditorlik guruhining rahbari tomonidan tasdiqlanadi va auditorlik ishchi hujjati hisoblanadi. Auditor tekshirilayotgan sub'ektning xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobi tizimida qanchalik to'g'ri va to'liq aks ettirilganiga ishonch hosil qilishi lozim. Shuningdek, auditorial auditorlik xulossalarida, hisob tizimini tashkillash darajasini, hujjatlar aylanish reja grafingining tuzilishini, hisob siyosatining mavjudligi va unga qanchalik rioya qilinayotganligini, va qanday hisob registrlaridan foydalanilayotganligi kabi masalalarni bayon qilish lozim.

Audit jaroyonida auditorlik dasturini tuzish ham muhim hisoblanadi. Dastur ham auditorning ishchi hujjati hisoblanib auditorlik rejasining mazmunan kengaytirilgan variant deyish mumkin. Umuman olganda, auditorlik rejasining ahamiyati judayam kattaligidan kelib chiqqan holda, bu rejada nimalar aks etishini quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.

Albatta, auditorlik rejasi va dasturini aynan mana shu shaklda tuzish shart emas, liatto 3-son AFMSda keltirilgan shakl ham tavsiya xususiyatiga ega, auditorlar korxonaning xususiyatidan, o'zlarining malakasidan, tajribasidan kelib chiqib ayrim o'zgaritirish va qo'shimchalar ham kiritishi mumkin.

“Oqtoshdon” OAJ o'z faoliyati davomida bank kreditlaridan foydalangan bo'lib, buxgalteriya obyektlarini (1-chizma) dagi tartib bo'yicha audit qilishni maqsadga muvofiqdir.

1-chizma. Bank kreditlari auditini o'tkazish ketma-ketligi (buxgalteriya hisobi obyektlari bo'yicha).



“Oqtoshdon” OAJ da bank kreditlarini audit qilish jaroyonida <6810- “Qisqa muddatli bank kreditlarining hisobi”> va <7810-“Uzoq muddatli bank kreditlarining hisobi”>schyotlari bo'yicha qoldiqdami balansda hisob baholarida aks ettirish hollari ko'p uchraydi. Auditor bu schotlar bo'yicha bank kreditlari operatsiyalarini to'g'ri rasmiylashtirilganligini, kreditlar bo'yicha foizlarni to'g'ri hisoblanganliginiva ushbu xarajat moddalarini korxonada to'g'ri aks ettiri 1 gan 1 igini quyidagi (3.1-jadval) audit usullari yordamida audit qilinadi.

№	Audit usuli	Audit usulining mazmuni
1.	Solistirish usuli	Iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes- reja bilan solishtirish
2.	Gipoteza usuli	Hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart- sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi
3.	Tahlil va sintez	Audit obyekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi
4.	Taftish usuli	Korxonaning faoliyatiga to'liq balio berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi
5.	Inventarizatsiya usuli	Korxonadagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mosligi tekshiriladi
6.	Kalkulatsiya usuli	Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi aniqlanadi
7.	Ekspertiza usuli	Hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi
8.	Buxgalteriya schotlari va ikki yoqlama yozuv usuli	Korxonada aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schotlari orqali tekshiriladi
9.	Balans usuli	Korxonadagi hodisalar, jarayonlarni rasmiylashtirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish

Xulosa. Audit jarayonida, auditor bank kreditlarini hisoblash va to'lash bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishiga, kredit to'lovlari bo'yicha hisobotlarni to'g'ri to'ldirilishiga va tegishli idoralarga vaqtida topshirilishiga hamda kredit foizlari o'z vaqtida to'lanishiga alohida ahamiyat berishi kerak. Auditor korxonada qo'llaniladigan bank krediti tizimi va shakllarini, ishni aniq sharoitlarini hisobga olgan holda, bank kreditidan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi. Bnk kreditlari tekshirilganda korxonada joriy etilgan me'yorlar to'g'ri yoki noto'g'ri belgilanish sabablari va aybdor shaxslari aniqlanadi. Amalda bajarilgan ishlarga qo'shib yozishlar uchrab turadi. Buning uchun bank kreditlari bo'yicha dastlabki hujjat ma'lumotlarini bank hujjatlari ma'lumotlari bilan solishtiriladi.